

Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasi bosh mutaxassisi vakant lavozimiga tanlov e'lon qilinadi

// 09.02.2023

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/tender/komplayens-bosh-mutaxassisi-vakant>

Vazifalari, funksional majburiyatlari

- Jamiyat tizimidagi korxonalar va tashkilotlar o'z nizomi va ichki lokal hujjatlariga rioya etilishi hamda Jamiyat mablag'laridan oqilona, samarali va maqsadli ishlatilishi ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirishda ishtirok etadi;
- Jamiyat faoliyatida amaldagi qonun hujjatlarining buzilishi holatlari, korrupsiya xarakatlari va manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha aloqa kanallari orqali Boshqarmaga kelib tushgan signallardan hamda Rahbariyat topshiriqlaridan kelib chiqib, Jamiyatning boshqa bo'linmalari bilan birgalikda xizmat tekshiruvlari o'tkazadi;
- Jamiyat bo'linmalarida amaldagi qonun hujjatlariga amal qilish, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati va unga oid huquqbuzarliklarni yuzaga kelish ehtimolini baholaydi va mavjud ma'lumotlar to'playdi;
- Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid davlat dasturlarida Jamiyatga yuklatilgan vazifalarning ijrosini amalga oshirishda ishtirok etadi hamda bajarilishi ustidan monitoring qilib boradi;
- Jamiyatning xaridlar sohasida o'tkazilgan tender (tanlov) savdolarining qonunchilikka rioya etilishi ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshiradi hamda kontragayentlarni tekshirishda ishtirok etadi;
- Jamiyat va uning tarkibidagi bo'linmalar tomonidan hamkorlar bilan tuzilgan shartnomalar va kelishuvlarni amaldagi qonun hujjatlarga muvofiqligi bo'yicha komplayens nazoratni amalga oshiradi;
- Jamiyat tomonidan xomiylik yordamlarini ko'rsatilishida belgilangan normalar va qonun hujjatlarga rioya etilishini o'rganadi;
- Jamiyat xodimlarining sovg'alar berish/olish va ishbilarmonlik, mexmondo'stlik belgilari bo'yicha xatti-xarakatlarining qonun hujjatlarga va ichki me'yoriy hujjatlarga, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qabul qilingan me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini o'rganadi;
- o'tkazilgan tekshiruvlar jarayonida aniqlangan kamchiliklar va qonunbuzilishlarni bartaraf etilishi yuzasidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar ijrosini ta'minlaydi;
- o'z vakolatlari doirasida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqadi va ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilinishini kafolatlaydi;
- markazlashtirilgan topshiriqlar bo'yicha nazorat hujjatlarini umumlashtiradi hamda ular yuzasidan tegishli axborotlar va takliflar tayyorlaydi;
- Jamiyat tizimida aniqlangan xarakterli qonun buzilishlari bo'yicha o'rganishlar materiallarini umumlashtirish hamda kelgusida ularni bartaraf etish va ularning oldini olishga doir takliflarni tayyorlaydi;
- sohaga oid halqaro standartlar bo'yicha o'quv kurslarida, trening va seminarlarda qatnashadi va malakasini oshiradi;
- o'z vakolati doirasida boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

Nomzodga qo'yiladigan talablar

- 30 yoshdan 35 yoshgacha;
- Iqtisod, moliya, moliyaviy kredit, yurisprudensiya sohasida oliy ma'lumot;
- Moliya, iqtisod, audit, nazorat taftish, g'aznachilik, davlat xaridlarini boshqarish va yurisprudensiya sohalari bo'yicha kamida besh yillik ish tajribasi (moliyaviy nazorat, g'aznachilik va davlat xaridlari sohaslarida ishlagan bo'lsa ustunlik beriladi);
- Moliyaviy nazorat, davlat xaridlari, komplayens nazorat, ishlab chiqarish bilan bog'liq sohalarda kamchiliklarni tekshirish, aniqlash hamda tekshiruv natijalarini hujjatlashtirish, zamonaviy fikrlash, soha bo'yicha takliflar berish hamda ularni joriy etish;
- O'zbek tilini yozma va og'zaki nutq uchun erkin darajada bilishi shart. Rus va ingliz tillarini bilishi ma'qullanadi;
- Kompyuter savodxonligi, ofis dasturlarini mukammal bilish;

Hamkorlik shartlari

- Bandlik shakli: Ofisda/to'liq bandlik;
- Ish tartibi 09:00 dan 18:00 gacha. Dushanba-juma;
- Mehnat qonunchiligi doirasida ish vaqtidan tashqari ishga jalb etilishi mumki;
- Sinov muddati 3 oy;
- Uzoq muddatli xizmat safarlariga tayyorlik.

Qo'shimcha talablar

- Korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik va unga nisbatan murossasiz munosabatda bo'lish;
- Mas'uliyatlilik, vijdonlilik, samaradorlik, tirishqoqlik, stressga chidamlik;
- Moliya, nazorat-taftish va g'aznachilik sohasiga oid davlat idoralarida mehnat faoliyatini olib borganligi;
- Sog'lig'ining qoniqarliligi (xodimning hayoti va sog'lig'iga tahdid soladigan surunkali kasalliklarga chalinmaganligi);
- korrupsiya, mansab vakolati va iqtisodiy jinoyatlar bilan bog'liq holatlar yuzasidan sudlanmaganligi.